
Nargizaxon Irgasheva maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i etib tayinlandi

Nargizaxon Irgasheva Farg'ona shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i lavozimiga tayinlandi. Bu to'g'risida Respublika maktabgacha va maktab ta'limi vazirining tegishli buyrug'i qabul qilindi.

Nargizaxon Irgasheva 1974 yilda Farg'ona shahrida tug'ilgan. Farg'ona davlat universitetini tamomlagan.

Mehnat faoliyatini 1994 yilda Marg'ilon shahridagi 16-maktabda ona tili va adabiyoti o'qituvchisi lavozimida boshlagan. 2006-2014 yillar davomida 2-Marg'ilon tibbiyot kollejida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, 2014-2018 yillar davomida Yormozor akademik liseyi direktori sifatida faoliyat ko'rsatgan.

2018 yildan tayinlovga qadar Farg'ona shahar maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri lavozimida ishlab kelayotgandi.

Bugun Farg'ona shahar hokimligi majlislar zalida N.Irgasheva soha xodimlari, ta'lim muassasalari rahbarlari va keng jamoatchilikka tanishtirildi.

2023-09-07 09:06:45